



XALQ DEPUTATLARI QAMASHI TUMAN KENGASHI Q A R O R I

2022 - yil 14 - noyabr

VI-56-130-4-58-K/22

Qamashi tuman hokimligi

Jamoatchilik fikri asosida shakllantirilgan tadbirlarni tanlab olish, g'olib deb topish va “Fuqarolar tashabbusi jamg‘armasida”gi mablag‘larni mazkur tadbirlarga yo‘naltirish to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 25-oktabrdagi “Jamoatchilik fikri asosida shakllantiriladigan loyihalarni moliyalashtirish ko‘lamini kengaytirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” PQ-409-son qarori ijrosini ta’minalash maqsadida, O‘zbekiston Respublikasi Moliya Vazirligining “Ochiq budjet” axborot portalı orqali 2022-yilning 2-mavsum uchun “Tashabbusli budget” jarayonida fuqarolar tomonidan o‘z hududidagi mavjud muammolarni bartaraf etish bo‘yicha qoldirilgan takliflarning, 2022-yil iyul-sentabr oylari davomida ya’ni 3-bosqich “ovoz berish” jarayoni yakunida aniqlangan 2000 ta va undan ortiq ovoz yig‘ib lekin g‘olib deb topilmagan 5 ta loyihani amalga oshirish uchun PQ-409-son qaroriga asosan qo‘sishimcha ravishda ajratilgan 6 milliard so‘m mablag‘ni yo‘naltirish uchun tasdiqlanganligi asosida O‘zbekiston Respublikasi “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonuning 24-moddasiga asosan xalq deputatlari Qamashi tuman Kengashi

QAROR QILADI:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Jamoatchilik fikri asosida shakllantiriladigan loyihalarni moliyalashtirish ko‘lamini kengaytirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2022-yil 25-oktabrdagi PQ-409-son qarori rahbarlik va ijro uchun qabul qilinsin.

2. Qamashi tumani bo‘yicha 2022-yil iyul-sentabr oylarida jamoatchilik

fikri asosida shakllangan hamda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 25-oktabrdag PQ 409-son qaroriga asosan 2000 ta va undan ko'p ovoz to'plagan tadbirlarni moliyalashtirish bo'yicha manzilli ro'yxat ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

3. Tuman hokimining o'rribbosari (Haydarov), tuman hokimligi bosh hisobchisi (Hushmurodov) manfatdor tuman tashkilotlari bilan birgalikda:

7211 ta ovoz bilan g'olib bo'lgan Boburtepa MFY Qo'shtamg'ali qishlog'i yo'lini ta'mirlash asfalt qilish;

5350 ta ovoz bilan g'olib bo'lgan Do'stlik MFY da joylashgan tuman tibbiyot birlashmasiga qarashli ko'p tarmoqli poliklinika bolalar bo'limini joriy tamirlash;

4020 ta ovoz bilan g'olib bo'lgan Quyi yangi MFY Quyi -yangi qishlog'inining 28 -maktabdan Quyi yangi qishloq qabristonigacha bo'lgan yo'lni tamirlash;

2559 ta ovoz bilan g'olib bo'lgan Elobod MFY Kattaarab qishlog'i ichki yo'llarini asfalt qilish;

2518 ta ovoz bilan g'olib bo'lgan Loyqasoy MFY Shurcha qishlog'idan Oltintepa qishlog'igacha bo'lgan yo'lni asfalt qilish bilan bog'liq xarajatlar ilovaga asosan tuman buyurtmachi tashkilotga o'tkazib berishni va maqsadli ishlatilishini nazorat qilsin.

4. Qamashi tuman hokimligi axborot xizmati rahbari-matbuot kotibi (Rasulov) tuman hokimligi moliya bo'limi (Pardayev) bilan birgalikda 3-bosqich, ya'ni "ovozi berish" jarayoni yakunida aniqlangan qo'shimcha "g'olib" takliflar, shuningdek, undagi shakllangan tadbirlarni moliyalashtirilishi hamda amalga oshirilishini keng jamoatchilikka muntazam ravishda yetkazib borishni tashkil etsin.

5. Mazkur qarorning ijrosini nazorat qilish tuman hokimining o'rribbosari (Haydarov) hamda xalq deputatlari Qamashi tuman Kengashining Mahalliy budget, iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish, investitsiyalar va tadbirkorlikni rivojlantirish masalalari bo'yicha doimiy komissiyasi (Norqulov) zimmasiga yuklansin.

6. Mazkur qaror qabul qilingan kundan kuchga kiradi.

Kengash raisi



B.Tog‘ayev

Xalq deputatlari Qamashi tuman Kengashining
2022 yil 14 noyabrdagi
VI-56-130-4-58-K/22-son qaroriga
1-ilova

**Qamashi tumani bo'yicha 2022-yil iyul-sentabr oylarida jamoatchilik fikri asosida shakllangan hamda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 25-oktabrdag PQ 409-son qaroriga asosan 2000 ta va undan ko'p ovoz to'plagan tadbirlarni moliyalashtirish bo'yicha
MANZILLI RO'YXAT**

№	G'olib taklif ma'lumotlari			Amalga oshirishning aniqlangan qiymati	Haqiqatda ajratilgan	Moliyalashtirish manbasi (FTJ, qo'shimcha manba, byudjet parametri)	<i>ming so'mda</i> Buyurtmachi tashkilot
	Taklif ID raqami	Qisqacha mazmuni	To'plangan ovozi soni				
"Fuqorolar tashabbusi jamg'armasi"da shakllangan mablag'				6 000 000			
1	0580600021	Boburtepa MFY Qo'shtamg'ali qishlog'i yo'lini ta'mirlash asfalt qilish	7 211	1 200 000	1 200 000	Fuqorolar tashabbusi jamg'armasi	Tuman Obodonlashtirish boshqarmasi
2	0580600143	Do'stlik MFY da joylashgan tuman tibbiyot birlashmasiga qarashli ko'p tarmoqli poliklinika bolalar bo'limini joriy ta'mirlash	5 350	1 200 000	1 200 000	Fuqorolar tashabbusi jamg'armasi	Tuman tibbiyot birlashmasi
3	0580600388	Quyi yangi MFY Quyi -yangi qishlog'ining 28 -maktabdan QYA qishloq qabristonigacha bo'lgan yo'lni ta'mirlash (ASFALTLASHTIRISH)	4 020	1 200 000	1 200 000	Fuqorolar tashabbusi jamg'armasi	Tuman Obodonlashtirish boshqarmasi
4	0580600394	Elobod MFY Kattaarab qishlog'i ichki yo'llarini asfalt qilish 2 km	2 559	1 200 000	1 200 000	Fuqorolar tashabbusi jamg'armasi	Tuman Obodonlashtirish boshqarmasi
5	0580600050	Loyqasoy MFY Shurcha qishlog'idan Oltintepa qishlog'igacha bo'lgan yo'lni asfalt qilish	2 518	1 200 000	1 200 000	Fuqorolar tashabbusi jamg'armasi	Tuman Obodonlashtirish boshqarmasi

Jami ajratilgan mablag'	x	x	6 000 000	x	x
Taqsimlanmagan mablag'			0	x	x